



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№3(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 230 sahifa,
16-mart, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woogyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Katta guruh tarbiyalanuvchilarida kasb haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish metodikasini innovatsion ekotizim sharoitida takomillashtirish	18
Uralova Fotima Baxtiyor qizi	
Malakali sportchilarning kommunikativ qobiliyatlarini takomillashtirishda sotsiologik yondashuv (gandbolchilar misolida).....	23
G. A. Valiyeva	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida motor alaliyali bolalarni ruhiy va nutqiy rivojlantirish usullari	27
Suyunova Surayyo Ulash qizi	
Sog'lom bola ekotizimining asoslari: ovqatlanish, immunitet va rivojlanish	31
Israilova Xusnida Adilovna	
Mobil ilovalar yordamida mustaqil o'qishni rivojlantirish	37
Raximova Feruza Najmiddinova	
Biologiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	42
Dauekeeva Gulistan Orinbaevna	
Talabalarga ingliz tilidagi matnlarni kommunikativ metod yordamida o'qish texnikasini takomillashtirish usullari	46
Mo'minova Mahliyo Axrorjonovna	
Velosiped haydashning afzalliklari.....	49
Raxmonova Go'zal Bobir qizi	
Компетентностный подход как стратегическая основа модернизации образования и его реализация в преподавании русского языка как иностранного в Узбекистане	54
Мирзакбарова Севда Бахиддиновна	
Umumta'lim maktablarida texnologiya fani mashg'ulotlarini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari va metodlari.....	58
Ziyamova Gulbaxor Tulabayevna	
Типы аббревиации в русском и узбекском языках: сравнительно-типологический анализ.....	62
Рахмонова Бахтигул Пайзилловна	
Maktabgacha ta'limda nutqni rivojlantirish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasi	65
Abidjonova Mushtariybonu Qobiljon qizi	
Tarbiyaviy tadbirlarni samarali tashkil etishda maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalarning o'zaro hamkorlik masalalari.....	71
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna, Jabborova Shaxina G'affor qizi	
Qadriyatli yondashuv asosida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish ..	76
G'aybullayev Quvonchbek G'olibovich	
Maktab o'quvchilarida stressga barqarorlik namoyon bo'lishining psixologik tahlili	83
Ismoilova N. Z.	
Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rni.....	87
Karshiyev Jaxongir Abdirayimovich	
Funksional savodxonlikni rivojlantirishda o'qish savodxonligining o'rni va ahamiyati	91
Xatamova Munisa Mamadulla qizi	
Transformatsiyalash tizimi asosida o'quvchilarning loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi	95
Jurayeva Zulayxo Islomovna	
Zamonaviy boshqaruv nazariyalarida rahbar muloqoti (transformatsion, kommunikativ va ishtirokchi boshqaruv yondashuvlari asosida).....	102
Islamova Difuza Dilshodovna	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik kompetentlikni tabaqalashgan yondashuv asosida rivojlantirish mazmuni	107
Begmatova Nasiba Mengnarovna	
Bo'lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta'limda subyektlar faoliyatini o'rgatish metodikasi	112
Dilshodov Abrorjon Dilshodjon o'g'li	
Pre-Reading Activities to Enhance Foreign Language Reading Comprehension: Reading "The Adventures of Tom Sawyer" in 10–11 Grades	118
Djumaniyazova Zulfiya Kaliyevna	
Nutq aktlarini o'rgatishda autentik materiallardan foydalanishning metodik imkoniyatlari (filologik yo'nalish talabalari misolida)	122
Fayzulloeva Chevar G'ayrat qizi	
Yangi O'zbekistonda talaba-yoshlarni milliy yuksaltirishda jadid-marifatparvarlari ilgari surgan g'oyalarning o'rni va roli	125
Mamadaliyev Abduvoxid Maxsitaliyevich	
Gimnastikaning O'zbekistonga kirib kelish va rivojlanish tarixi	128
N. Q. Mamasidova	
Uglevodorodlar tarkibini aniqlashda massa ulushiga asoslangan reflektiv yondashuv (7-9-sinflar misolida)	131
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich, Smanova Zulayxo Asanaliyevna	
Screencasting materiallarini yaratish va ularni o'quv jarayonida qo'llash	134
Maxmudova Dilfuza Meliyevna, Ergashov Niyozxon Ilyozxon o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda so'z shakllanishini psixolingvistik asoslari	137
Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi	
Maktabgacha ta'limdagi muammolar va yechimlar: o'zbekiston respublikasi tajribasi	140
N. Sh. Miryusupova	
Interaktiv kartografik resurslar va ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishining didaktik, kognitiv hamda metodik asoslari	143
Olimova Aziza Abdullayevna	
Mentorlik tizimining tarixiy ildizlari va rivojlanish bosqichlari	147
Oxunova Dilnoza Qaxxorjonovna, Abdumannonova Durdonaxon Shuxratjon qizi	
Talabalarining psixologik holati va stress omillarining prokrastinatsiyaga ta'siri hamda mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash usullari	150
Razakov Farxod Kuvondikovich, Rajabov Hikmat Toshevich	
Talabalarni stulda o'tirgan qiyofachi portreti ranglavhasini ishlashga o'rgatish metodikasi	154
Sadatov Chori Xolmuradovich	
Organik kimyo fanini o'qitishda teskari ta'lim va texnologiyalarning ahamiyati	158
Umrbekova Maftuna Ulug'bek qizi, Babanazarova Ayzada Omirbaevna, Abdulkakimova Gulziyba Ziyatdinovna	
Duduqlanishni bartaraf etishda kompleks metodlarini qo'llashning samaradorligi	162
Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi	
Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini takomillashtirish	165
Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi	
Проектирование персонализированных образовательных сценариев в дошкольном образовании средствами генеративного искусственного интеллекта	168
Пак Диана Александровна	
Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda STEAM yondashuvining roli	170
Atenov Jandarbek Dayrabay o'g'li	
Innovatsion ta'lim muhitida talabalarining kasbiy muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari	173
Bo'ltakov Sanjarbek Xazratqul o'g'li	
Alohida ta'lim ehtiyojlari mavjud bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim tizimining ahamiyati	176
Mehmonova Nodiraxon Yusufxon qizi	

Duduqlanish nutq kamchiligini korrektsiyalashning maxsus va integratsiyalashgan texnologiyalarini rivojlantirish.....	180
Boxodirova Gulasalxon Ibrohimovna	
Эссе как инструмент формирования и диагностики компетенций в системе высшего образования .	184
Шейхмамбетов Сервер Рефикович	
Matallar va folklor hikoyalari: maktabgacha ta'lim tashkilotlarida interaktiv dars texnologiyalari.....	188
Azimova Nodira Hikmatovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish va ularni sportga yo'naltirishning pedagogik asoslari.....	191
Norboyev Komiljon Jurakulovich, Rustamova Kamola Xayrulla qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'qitilishining ahamiyati.....	194
Burkhanova Sabo Tulanovna	
Oliy ta'lim muassasalarida O'zbekistonning eng yangi tarixini o'qitishning metodologik asoslari va muammolari	197
Norbutayeva Guzal Abdig'ofurovna	
Ta'lim tashkilotlarida sifatni boshqarish jarayonlarini tizimli rejalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	200
Abdurashit Karimovich Avliyakulov	
Tarbiya darslari samaradorligini oshirishda abdulla avloniy pedagogik hikmatlaridan foydalanishni metodik tashkil etish.....	204
Daliyeva Eliza Zokir qizi	
Badiiy-tarixiy meros asosida bo'lajak pedagoglarning refleksiv tafakkuri va kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirish	207
Qodirova Mavluda Maxodir qizi	
Adabiyot darslarida lirik asarlarni vizual yondashuvlar asosida o'qitish usullari.....	210
Sobitova Mahmudaxon Shuxratbek qizi	
ESG tamoyillarini ta'lim tizimiga joriy etish orqali talabalarda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirish	216
Tursunova Shahzoda Baxromovna	
Социально-психологические факторы нарушения психологического здоровья в семье	219
Гулру Тургунова	

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA IJTIMOY- GUMANITAR FANLARNING O'QITILISHINING AHAMIYATI

Burkhanova Sabo Tulanovna

TDIU, "Ijtimoiy fanlar kafedrası" dotsenti

ORCID: 0009-0006-6372-7153

Annotatsiya: Ijtimoiy-gumanitar fanlar yoshlar hayotida muhim o'rin egallaydigan ilmiy yo'nalishlar qatoriga kiradi. Mazkur fanlar talabalarda kreativ fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish hamda fuqarolik faolligini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ular jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlarni keng va chuqur anglash imkonini beradi. Oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'qitilishi talabalarning dunyoqarashini kengaytirish, demokratik qadriyatlarni anglash va jamiyat hayotida faol ishtirok etish kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: mustaqillik yillari, oliy ta'lim muassasalari, ta'lim tizimi, islohotlar, ijtimoiy-gumanitar fanlar, demokratik jamiyat.

Abstract: Social sciences and humanities are among the disciplines that play an important role in the lives of young people. These fields contribute to the development of creative thinking, independent decision-making, and civic engagement among students. They also provide a deeper understanding of social, political, and cultural processes occurring in society. Teaching social sciences and humanities in higher education institutions is essential for broadening students' worldview, strengthening democratic values, and fostering active participation in social life.

Key words: years of independence, higher education institutions, reforms, education system, social sciences and humanities, democratic society.

Аннотация: Социально-гуманитарные науки относятся к числу дисциплин, играющих важную роль в жизни молодежи. Данные науки способствуют формированию у студентов креативного мышления, самостоятельности и гражданской активности. Кроме того, они обеспечивают глубокое понимание социальных, политических и культурных процессов, происходящих в обществе. Преподавание социально-гуманитарных дисциплин в высших учебных заведениях имеет важное значение для расширения мировоззрения студентов, усвоения демократических ценностей и формирования активной гражданской позиции.

Ключевые слова: годы независимости, высшие учебные заведения, реформы, система образования, социально-гуманитарные науки, демократическое общество.

KIRISH

Mutafakkir olim Abu Nasr Forobiyning fikricha: "Ta'lim so'zi xalqlar va shaharliklar o'rtasida nazariy fazilatlarini birlashtirishni, tarbiya esa shu xalqlar o'rtasidagi tug'ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirishni anglatadi. Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi". Forobiyning ta'lim-tarbiya yo'llari, usullari va vositalari haqidagi qarashlari ham qimmatlidir. U insonda go'zal fazilatlar ikki yo'l – ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinishini ta'kidlaydi.

Ta'lim shaxsning nazariy bilimlarini birlashtirsa, tarbiya esa tug'ma fazilatlar, nazariy bilimlar hamda amaliy kasb-hunar va xulq-atvor fazilatlarini uyg'unlashtiradi. Ta'lim so'z va o'rganish orqali, tarbiya esa amaliy ish va tajriba orqali amalga oshiriladi. Har ikkisi uyg'unlashganda yetuklik namoyon bo'ladi, ammo bu yetuklik bilim va amaliy ko'nikmalarni qay darajada egallanganligiga qarab baholanadi, deb ko'rsatadi.

Farobiy ta'lim jarayonida barcha fanlarning nazariy asoslari o'rganilishini, tarbiya jarayonida esa ma'naviy-axloqiy qoidalar, odob me'yorlari o'zlashtirilishini hamda kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinishini ta'kidlaydi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni ta'minlash, davlatimiz chegaralari daxlsizligini mustahka-



mlash, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini qaror toptirish uchun muhim poydevor bo'ldi. Shuningdek, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyati masalasi ko'plab olimlarning ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan. Abu Nasr Forobiy ta'lim va tarbiyani inson kamolotining asosiy omili sifatida baholab, ta'lim orqali nazariy bilimlar, tarbiya orqali esa axloqiy fazilatlar va amaliy ko'nikmalar shakllanishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bilim va tarbiya uyg'unligi jamiyat taraqqiyotining muhim shartidir. Shuningdek, Abdulla Avloniy ham ta'lim jarayonida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratib, yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda ijtimoiy fanlarning o'rni muhim ekanini ta'kidlaydi. Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida ta'lim jarayonida ma'naviy tarbiyaning ahamiyati keng yoritilgan.

Zamonaviy tadqiqotlarda ham ijtimoiy-gumanitar fanlarning oliy ta'lim tizimidagi ahamiyati alohida e'tirof etiladi. Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish, tarixiy tafakkurni rivojlantirish va milliy qadriyatlarni mustahkamlashda ijtimoiy-gumanitar fanlarning muhim o'rni borligini ta'kidlaydi.

R. X. Djurayev va S. T. Turg'unov ta'lim menejmenti bo'yicha tadqiqotlarida oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy fanlarni o'qitish talabalarning ijtimoiy faolligi, tanqidiy fikrlashi hamda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qilishini asoslab bergan.

Shuningdek, Burkhanova S. T. oliy ta'lim tizimida O'zbekiston tarixini o'qitish metodikasiga oid tadqiqotida tarixiy tafakkurni rivojlantirish va talabalarning ijtimoiy ongini shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning muhim rol o'ynashini ilmiy jihatdan asoslaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ijtimoiy-gumanitar fanlarning oliy ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyatini aniqlash maqsadida bir qator ilmiy-uslubiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda pedagogik manbalarni o'rganish asosida nazariy tahlil amalga oshirildi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish jarayonini o'rganish uchun kuzatish, so'rovnoma va suhbat metodlari qo'llanildi. Talabalar va professor-o'qituvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma orqali mazkur fanlarning ta'lim jarayonidagi samaradorligi hamda ularning talabalarning dunyoqarashi va ijtimoiy faolligini shakllantirishdagi ahamiyati haqida empirik ma'lumotlar to'plandi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, umumlashtirish va tizimlashtirish usullari asosida qayta ishlanib, ularning mazmuni ilmiy jihatdan talqin qilindi. Natijada ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishning ta'lim sifatiga ta'siri hamda talabalarning ma'naviy-ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi sharoitda tarbiyaga oid insoniyatning boy ma'naviy xazinasidan munosib o'rin olgan tarixiy, milliy, ma'naviy-madaniy merosimiz, urf-odatlarimiz va qadriyatlarimizdan ta'lim jarayonida samarali foydalanish o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvar, fidokor, yuksak madaniyatli va ma'naviyatli qilib tarbiyalashning asosiy omillaridan biridir.

XX asr kishilik jamiyati taraqqiyoti tarixida fan va texnika sohasida yuz bergan inqiloblar davri sifatida muhim o'rin egalladi. Bu davr ilm-fan sohasida ko'plab ixtiro va kashfiyotlar amalga oshirilgani bilan birga siyosiy jarayonlarda ham sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Jahon tarixida bu davr qanchalik tarixiy voqealarga boy bo'lgan bo'lsa, O'zbekiston tarixida ham chuqur iz qoldirdi.

XX asr mamlakatimiz xalqiga bergan eng buyuk ne'matlardan biri – O'zbekiston milliy davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi bo'ldi. Chunki mustamlakachilik zulmi va muteligidan ozod bo'lish, tom ma'nodagi mustaqillikka erishish xalqimizning uzoq yillardan buyon kutgan ezgu orzusi edi. Bu maqsad yo'lida millatning minglab farzandlari o'z jonlarini qurbon qilganlar.

O'zbekistonning milliy davlat mustaqilligi xalqimizga hur, erkin va ozod yashash, o'z taqdirini o'zi belgilash imkonini berdi. Istiqlol yillarida yurtimizda milliy ma'naviyatni tiklash va uni zamon talablari asosida rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Farmoniga muvofiq "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" qabul qilindi. Ushbu konsepsiyada ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi muhim vazifalar belgilangan.



Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-son "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ham oliy ta'lim tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Ijtimoiy fanlar yoshlar hayotida muhim o'rin tutadigan fanlar sirasiga kiradi. Ular kelajak avlodni kreativ fikrlashga, faol bo'lishga undaydi, jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlarni keng idrok etishga yordam beradi hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etishga rag'batlantiradi.

Ijtimoiy fanlar ma'naviyatni yuksaltirishga xizmat qiladi, yoshlarni yot g'oyalar ta'siriga tushib qolmaslikka va ularga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishga undaydi. Bu fanlar orqali siyosiy yetuklikka erishiladi, tanqidiy fikrlash, har qanday masalaga to'g'ri va ijodiy yondashish ko'nikmalari shakllanadi.

Shuningdek, ijtimoiy fanlar nutq madaniyatining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, bu esa yoshlarda ma'naviy-siyosiy yetuklikning o'rtishiga hamda boshqaruv qobiliyatining shakllanishiga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan fanlarning umumiy soatlaridan universitet va pedagogika institutlarida kamida 30 foizi, boshqa oliy ta'lim muassasalarida esa kamida 25 foizi ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishga ajratilishi zarur. Ularni jahon standartlari darajasiga yetkazish muhim ahamiyatga ega.

Bu borada ayrim qarama-qarshi fikrlar ham mavjud. Prezident Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida bu sohada uchrayotgan kamchiliklar haqida to'xtalib o'tgan. Jumladan, 2021-yilda "O'zbekiston" nashriyotida chop etilgan "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida quyidagi fikrlar ilgari surilgan:

"Milliy ma'naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa yoshlarimiz hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati juda katta. Afsuski, bu fanlar rivoji zamondan ortda qolmoqda. Xususan, biz uchun nihoyatda dolzarb bo'lgan tarix fani ham bundan mustasno emas. Tarixga oid ilmiy tadqiqot ishlari asosan bayonchilik, publitsistik usulda olib borilmoqda. Natijada olis va yaqin o'tmishimizdagi ko'plab voqealar mohiyati, ularni yuzaga keltirgan omillar va tarixiy qonuniyatlar yetarlicha ochib berilmayapti".

Shu sababli tarix fanini rivojlantirish, tarixiy tadqiqotlarni ilmiy metodologiya asosida olib borish, tarixiy voqealarni xolis va faktlarga tayangan holda yoritish zarur.

O'quv adabiyotlarining sifatini oshirish, zamonaviy darsliklar yaratish, xorijiy adabiyotlarni tarjima qilish hamda kutubxonalar fondini muntazam yangilab borish ijtimoiy-gumanitar fanlarni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

O'zbekistonda tarix fanini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish rejalashtirilmoqda. Ushbu konsepsiya qabul qilinishi natijasida tarix fani yangi ilmiy asosda rivojlanadi, ilmiy faoliyat samaradorligi oshadi, milliy tarixni o'rganish va targ'ib qilish jarayoni yanada takomillashadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Demak, oliy ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – umuminsoniy va milliy ma'naviy qadriyatlarga tayangan holda ta'lim va tarbiya mazmunini insonparvarlik g'oyalari bilan boyitish, ta'lim tizimini demokratlashtirish, uning uzviyligi va izchilligini ta'minlashdan iboratdir.

Mustaqil yurtimiz ma'naviyati kelajakni barpo etayotgan davlatimiz taraqqiyotining mustahkam poydevori hisoblanadi. Talaba yoshlarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish uchun barcha ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni to'g'ri tashkil etish, tarbiyaviy soatlarni samarali o'tkazish hamda darsdan tashqari ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni keng yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviyatli, tafakkuri boy va dunyoqarashi keng xalq boshqaruvidagi davlat hech qachon tanazzulga yuz tutmaydi. Zero, bunday xalqning tarixi buyuk, ma'naviyati yuksak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini 2017–2021-yillarda yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/-3107036>
2. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 11-iyuldagi PF-5763-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2019-yil 12-iyul, 06/19/5763/3410-son.
4. Burkanova S. T. Some Approaches to Teaching History of Uzbekistan in Higher Education // European Multidisciplinary Journal of Modern Science. <https://emjms.academicjournal.io/index.php/> Volume: 4.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.